# ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI

**Axrorov Ixtiyor Donyorovich**
BuxDPI o’qituvchisi

**Annotatsiya:**Ushbu maqolada buyuk jadid ma’rifatparvari Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlariga oid fikrlar ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

**Kalit so’zlar:** Guliston, Bo’ston, ko’rgazmalilik, aniqlik, ifodali o’qish, Ismoilbek, milliy zamin, Rossiya, darslik, adabiyot va hokazo.

Bizga ma’lumki, jadidlar ma’rifatparvarlik, vatanparvarlik, millat kamoli yo’lida jonbozlik ko’rsatganlar.Doimo jadidchilik harakati haqida fikr yuritganda, uning milliy ozodlik harakatida tutgan o’rni, madaniyat va san’at sohasidagi ishlari, teatrlar tashkil qilgani, gazetalar nashr etganiga e’tibor qaratiladi. Ammo bu harakat vakillari faoliyatining asosiy qirralaridan biri maktablar uchun darslik va o’quv qo’llanmalari yaratganliklari, yosh avlodning savodli, ilmli bo’lishiga katta hissa qo’shganliklarida ekanligini ham ta’kidlash joizdir.

«Usuli jadid» maktablari vujudga kelishi bilan an’anaviy o’qitish usullarini tubdan isloh qilish, ona tili va adabiyot o’qitishning yangi usullarini ishlab chiqish va shu asosda darsliklar, o’quv qo’llanmalar yaratish jadid pedagogikasining dolzarb masalasiga aylandi. Jadid pedagoglarining o’qitish metodlari sohasidagi faoliyatlari, asosan, ularning darslik va o’quv qo’llanmalarida o’z ifodasini topgan. O’qitishda ko’rgazmalilik, ifodali o’qish va uning turlari, ularda texnik vositalardan foydalanish, og’zaki va yozma nutq o’stirish usullari kabi ona tili va adabiyot o’qitishning muhim dasturiy masalalari aynan jadid pedagoglari tomonidan ishlab chiqildi.

Jadid pedagoglarining buyuk xizmatlari shundaki, ular ona tili hamda milliy adabiyotni o’qitishga millatning hayot yoki mamoti masalasi sifatida qaradilar, ona tili va adabiyot o’qitishning nazariy asoslarini ishlab chiqdilar. Bu masala ularning darsliklarida o’z ifodasini topdi. Milliy va diniy zaminga qurilgan «usuli savtiyai tadrijiya» maktablarining Rossiyada boniyi muassisi Ismoilbek hazratlaridur» deydi

Behbudiy. Usuli jadid maktablarining xuddi shu milliy zamin asosida vujudga kelganligi chor ma’murlari mafkurasiga butunlay zid edi. Jadid mutafakkirlari tomonidan ochilgan maktablar va ularning ta’lim-tarbiya sohasidagi faoliyati chor Rossiyasining g’ayrirus millatlarni ruslashtirish siyosatini amalda yo’qqa chiqarar edi.Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» darsligi vositasida boshlang’ich sinflarda axloqdan ta’lim berishga qaratilgan fanni maktab dasturiga kiritdi. Adibning bir qator maktab o’quvchilari uchun yozilgan darslik va o’quv qo’llanmalari singari ushbu darslik ham mazmuni jihatdan boshqa darsliklarga uzviy bog’liq. Mazkur darslik yosh avlodga axloqiy tarbiya berishga xizmat qilgan asl durdona asardir. Olimlar M. Maxsumov va l.Xalilovlarning yozishicha, «asar Kaykovusning «Qobusnoma», Yusuf Xos Hojibning «qutatg’u bilig», Nosir Xusravning «Saodatnoma», Sa’diyning «Guliston», «Bo’ston», A.Jomiyning «Bahoriston», Alisher Navoiyning «Mahbubul qulub», Ahmad Donishning «O’g’illarga nasihat» kabi asarlari tipidagi o’ziga xos bir asardir». Ular fikrlarini davom ettirib, bunday asar xx asr boshida o’zbek tilida birinchi bo’lib Abdulla Avloniy tomonidan yaratildi va ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etdi, deydilar .

Ulug’ ustozning bir qancha xorijiy tillarni bilganligi «Turkiy guliston yoxud axloq»dek darslikning yaratilishiga poydevor bo’ldi va u xorij allomalari tajribalaridan o’rinli foydalana oldi. Pedagogning ushbu darsligi 64 ta katta va kichik boblardan iborat bo’lib, har bir bob ta’lim-tarbiya masalasiga bag’ishlanadi. Ushbu darslikni tuzishda muallif, o’zbek xalqining milliy an’analari, xalq og’zaki ijodi materiallaridan unumli foydalangan. Darslikning nomidan ham ko’rinib turibdiki, unda odamlarning odobi, xulqi va hatti-harakatlari haqida fikr yuritiladi. Pedagog insonlarni xulq-atvor jihatidan 2 guruhga, ya’ni, yaxshi xulqli kishilar va yomon xulqli kishilarga ajratadi. Har ikki guruhga mansub kishilarga ta’rif berib, yaxshi xulqli kishilar fatonat, nazofat, sa’y-g’ayrat, riyozat, shijoat, qanoat, ilm, sabr, hilm, intizom, miqyosi nafs kabi ijobiy xislatlarni o’zida namoyon qilsa, yomon xulqli kishilar esa g’azab, jaholat, razolat va shu kabi salbiy xislatlarni o’zida aks ettiradi. Darslikda «yaxshi xulqlar», «yomon xulqlar» nomli matnlarda xulqning har qaysi turiga alohida-alohida to’xtalib o’tilgan. Muallif darslikda bola tarbiyasiga katta

ahamiyat beradi. Abdulla Avloniyning aytishicha, bolaning bekami ko’st voyaga yetishiga uchta omil, ya’ni, ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va uning atrofidagi do’st-birodarlari ta’sir qiladi. Shuni e’tiborga olish kerakki, hozirgi zamon fani ham ma’rifaparvarning mazkur fikridan kelib chiqib, bolaning har tomonlama barkamol shaxs bo’lib yetishishiga: oila, ijtimoiy muhit, maktab va jamoatchilik ta’sir ko’rsatishini ilmiy jihatdan asoslab bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, ajdodlarimizning madaniy - ma’naviy va ilmiy-pedagogik merosi qadimiy va boydir. Milliy qadriyatlarimizni anglash, milliy g’oya va mafkurani xalq ongida shakllantirish hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Dolimov U.”JADID MAKTABLARI: ULARDA ONA TILI VA ADABIYOT QITISHNING ILMIY-NAZARIY HAMDA AMALIY ASOSLARI”.Ped. fan.nom dissert. Avtoref.Toshkent. 2008.

2. Ne’matov Sh.E.Turkistonda darsliklar yaratishning tarixiy yo’li va ularning didaktik asoslari. Ped.fan.nomz.dissert.avtoref. Toshkent. 2009.

3. Hayitov H. A. QUSHLARGA IBRAT-HAZRATI XIZR! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.

4. H H Akhmadovich Khoja nasriddin afandi as people’s hero. AKADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL 11(2).1562.

5. T. Khoja o’g’li, K H Ahmadovich Advanced Characteristiks of the Tradition of Using Uzbek Folk Humor Art in Written Literature. Amerikan Journal of Social and Humanitarian Research 3 (9).1-4.

6. K K Akhmadovich, NS Ubaydullayevna THE PRACTICAL SIGNIFICANCE OF EDUCATIONAL INTEGRATIONS IN THE FORMATION OF INDEPENDENT WORK IN PRIMARY GRADES.Conferencea, 66-75..

7. K K Akhmadovich, O B Togmurodovich NEW STAGES AND PRACTICAL CONDITIONS FOR CREATING NATIONAL TEXTBOOKS AND ALPHABET BOOKS.Conferencea, 54-58.

8. K K Akhmadovich, SG Badriddinnovna THE CONCERT OF READING, SPECIAL FEATURES OF CHILDREN’S READING E Conferencea,28-33.

9. KK Akhmadovich, N O Alisherovna THE AESTHETIC VALUE OF LINGUISTIC FLORIONYMS IN WORKS OF ART IN AROUSING LAUGHTER